
Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda

"Chorshanba - favqulodda vaziyatlarni oldini olish va yong'inlar profilaktikasi kuni" munosabati bilan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan Qo'shtepa tumanida profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Olib borilgan tadbirlar davomida Qo'shtepa tumani FVB xodimlari tomonidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda mahallalarda hamda ijtimoiy soha ob'yektlarida profilaktika ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, fuqarolarga hamda ijtimoiy soha ob'yektlaridagi ishchi- xodimlarga yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi, botulizm kasalligi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni oldini olish hamda bunday holatlarda tez va aniq to'g'ri harakat qilish to'g'risida tavsiyalar berilmoqda.







2024-11-13 10:42:49